

NAZARIY VA AMALIY TILSHUNOSLIK O'RTASIDAGI TAFOVUTLAR

**Yaxshimuraev Nurbek Pandji o'g'li
Ramazonov Muxriddin Muxiddin o'g'li**

Ilmiy rahbar: Deleverxanova L.K.

Termiz Davlat Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikning nazariy va amaliy turlari farqlari hamda uning fan sifatidagi ta'limoto haqida fikrlar keltirilgan. Tilshunoslik-tilning ijtimoiy tabiatini, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko'rish qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi fan. Qadimgi davrlardan boshlab til tilshunoslik fanining predmeti va o'rganish manbai sanaladi. Tilshunoslik fanining predmeti, tilning tabiatini va mohiyatini har xil tushunish natijasida naturalizm, psixologizm, logisizm, sotsiologizm, strukturalizm kabi turli ilmiy terminlar vujudga kelgan. Ushbu fan tilni bevosita o'rganish bilan shug'ullanadigan fan hisoblanadi va insonning psixologik xarakterini va nutqini tadbiq etadi.

Kalit so'zlar: lingvistika, til, zamonaviy tilshunoslik, stilistika, konsept, idioma, falsafa, psixologiya, leksema, termin, metodologiya.

DIFFERENCE BETWEEN THEORETICAL AND PRACTICAL LINGUISTICS

Abstract: This article discusses the differences between theoretical and practical types of linguistics and its teaching as a science. Linguistics is a science that studies the social nature, function, internal structure of language, the laws of language operation and historical development. Since ancient times, language has been a subject of linguistics and a source of learning. Naturalism, psychologism as a result of various understandings of the nature and essence of the subject of linguistics, logicism, sociologism, various scientific terms such as structuralism have emerged. This subject is a science that deals with the direct study of language and applies the psychological character and speech of a person.

Keywords: linguistics, language. modern linguistics, stylistics, concept, idiom, philosophy, psychology, lexeme, term, methodology.

Kirish.

Nazariy tilshunoslikning muhim va murakkab muammolaridan bo'lgan sistema hamda struktura munosabatida sistema butunlik bir butun, yaxlit

obyekt sifatida qabul qilinadi. Struktura esa sistemaning butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan, sistemani sistema qiluvchi bir-biri bilan zaruriy bog'langan elementlar, bo'laklarning o'zaro bog'lanish tartibi, chizmasi sifatida voqelanadi. Boshqacha aytganda, sistema (yunoncha) elementlardan qismlardan, bo'laklardan iborat butunlik bo'lsa, struktura (yunoncha) o'zaro bog'liqlik, ichki aloqa-tuzilish, qurilish demakdir. Struktura sistemani bir butun obyektni tashkil qilgan elementlar, qismlar orasidagi ichki aloqa, munosabatlardir. Anig'i, sistema butunlik, struktura- qismlilik. Sistema umumiylig, struktura xususiylik. Sistema elementlar aloqasining, bog'liqligining tugallangan nuqtasi, yaxlitligi. Struktura elementlar aloqasining boshlang'ich nuqtasi, ularning dastlabki qator ichki bog'lanishi, munosabati. Sistema sintetik, struktura analitik tushunchalardir.¹⁷

Izlanish metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.

Umumiy tilshunoslik barcha tillar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtiradi va turli tillarga tatbiq etiladigan nazariyani yaratadi. Umumiy tilshunoslikning maqsadi: 1) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash; 2) til haqidagi fanning sathlarini va ulami o'rganuvchi sohalarni belgilash; 3) tillarning tasnifini yaratish; 4) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish va boshqalar.

Xususiy tilshunoslik - alohida, ayrim til haqidagi fan; jumladan, ozbek tilshunosligi o'zbek tili haqidagi fan, qozoq tilshunosligi qozoq tili haqidagi fan, rus tilshunosligi rus tili haqidagi fan va hokazo. O'z-o'zidan ayonki, har bir xususiy tilshunoslik ma'lum bir konkret tilga xos bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslik fanining asosiy problemalaridan biri tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta'rifidir. Ma'lumki, tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab obyekt bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'rifi ham turlicha bo'lishi mumkin. Hattoki, tilshunoslik fanining o'zida ham tilning yagona ta'rifi yo'q. Tilning ta'rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo'imqoda.

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa

¹⁷ Gulmira Komilova "Nazariy tilshunoslikda sistema va struktura tushunchalarining ahamiyati" Toshkent-2021, 234-bet

ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiatni jihatidan til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi ishoralar tizimidir. Nazariy tilshunoslik til haqidagi nazariyani organsa, amaliy tilshunoslik lingvistik bilimlarni amalda qo'llash bilan shug'ullanadi.¹⁸

Natijalar.

Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Til paydo bo'lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergen) jamiyat tez rivojlana boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a'zolari bo'l mish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi. Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, ya'ni til odamlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Jamiyatsiz tilning mayjud bo'lshi mumkin emas. Jamiyat a'zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning 80-90- yillardagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rinnlidir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning yo'q bo'lib ketish xavfi paydo bo'ldi. Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktyabrdan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.¹⁹

Muhokama.

Har qanday ilmiy ishda o'rganilayotgan predmetning mavhum modelini yaratmay kutilgan natijalarga erishish mumkin emas. Tilshunoslikda ham til va til birliklarining o'ziga xos modeli ishlab chiqilgan va shu model asosida ish yuritiladi. Tilshunoslari yaratgan modelning psixolog yaratgan til modeliga to'g'ri kelish-kelmasligini e'tiborga olishmaydi. Bu modellar bir-biridan farq

¹⁸ Z. Xolmanova "Tilshunoslikka kirish". Toshkent-2010, 3-4 betlar

¹⁹ www.Wikipedia.com portal

qiladi. Chunki tilni psixologiya nuqtai nazaridan o'rganayotgan olimlar gapiruvchining nutq faoliyatini hisobga olishlari lozim: nutq faoliyati natijasida yuzaga keladigan matn ma'lum jarayonni, sistemani tashkil qiladi: yaratilgan matn jamiyatning boshqa a'zosi (yoki a'zolari) tomonidan qabul qilinadi; qabul qilishning o'zi ham ma'lum jarayonni, sistemani tashkil etadi. Bu jarayonlar inson psixikasi, uning ongi bilan uzviy bog'langan.²⁰ Til tuzilishiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning oz tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zlarni, iboralarni, grammatik shakl va korsatkichlarni shakllantiradi.

Tovushlardan iborat bo'lgan soz va iboralar yig'indisi tilning lug'at boyligini tashkil qiladi. Lug'at boyligidagi so'z va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalarini tilning grammatik qurilishi belgilaydi. Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug'at boyligi, grammatik qurilishi ozaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining bolishini talab qiladi. Har bir konkret til o'zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi. Til taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa. Til to'xtovsiz ravishda ozgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug'at boyligida o'z aksini topadi. Kishilar hayotidagi ozgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan ozgaradi. Buni til tarixini o`rganish orqaligina sezish mumkin.

O'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida jiddiy ozgarishlar ro'y berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xojaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi ko'pgina o'zgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi o'zbek tili leksikasining ko'pgina yangi so'zlar hisobiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan sozlar hisobiga boyishiga sabab bo'ldi. Masalan: broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes va

²⁰ M.T.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish" Toshkent-2009. 246-bet

hokazo. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida ozgarishlar ro'y berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshladi. Masalan: ishbilarmon va tadbirkor so'zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu sozlar ot turkumiga o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi.

XULOSA

Til o'rganish muammosi azaldan olimlar va mutafakkirlarni tashvishga solib keladi. Tilning tashqi ko'rinishi, rivojlanishi va tarqalishi masalalari uzoq vaqt davomida o'rganilib kelinmoqda va bu jarayon hozirgi kungacha davom etmoqda. Til inson hayotining barcha sohalarida bevosita ishtirok etadi, shuning uchun tilni o'rganish, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va rolini aniqlash, hodisalarni bilish tilshunoslik va boshqa fanlar o'rtasidagi keng aloqalarga olib keladi. gumanitar fanlar, tabiiy va tibbiy, fizika, matematik va texnik. Til, inson hayotining boshqa hodisasi yoki ob'ekti kabi, ham sinxronizmda (tilning bir vaqtning o'zida bo'lgan faktlarini o'rganish) va diaxroniyada (til faktlarini ularning rivojlanishida o'rganish) ko'rib chiqilishi kerak). Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslik bizga zamonaviy bilimning deyarli barcha sohalari bilan keng aloqador bo'lgan tarmoqlangan ko'p qirrali tilshunoslik sifatida ko'rindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gulmira Komilova "Nazariy tilshunoslikda sistema va struktura tushunchalarining ahamiyati" Toshkent-2021
2. Z. Xolmanova "Tilshunoslikka kirish". Toshkent-2010
3. www.Wikipediya.com portal
4. www.ziyouz.com axborot-ta'lif portal
5. Lingvistik ensiklopedik lug'at Moskva-1990
6. A.Turobov. Umumiyl tilshunoslik fanidan o'quv-uslubiy majmua. Samarqand-2020
7. M.T.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish" Toshkent-2009